

2019 yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR

(1) 23336,7 mlrd.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	(2) 101,1 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
(3) 1713,5 mlrd.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	(4) 102,5 % o'sish sur'a'ti
(5) 7,3 % iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	(6) 12,4 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 23336,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 105,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 99,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 113,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 88,6 % ga o'sish hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2627,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajming 11,3 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19286,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,6 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,4 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 6,5 %, o'rta-quyi texnologiyali - 84,6 % va quyi texnologiyali 8,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-iyul



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,7 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 75,3 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,6 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,5 % ni tashkil

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<i>2018 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
---	--	---	------------------------------

Portlandsement, ming tonna

2135,0



2019,0

94,6

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna

22047,0



34199,9

155,1

Ammoniy nitrat, ming tonna

126,44



143,86

113,8

<i>2018 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
---	--	---	--------------------------

Temir beton, tonna

30644,5



28386,1

92,6



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1378,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



***Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<i>2018 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
--	---	--	-------------------------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna

34165,0



28913,0

84,6

***Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish
bo'yicha xizmatlar, mln. so'm***


7618,357



11137,503

146,2

***2019-yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab
chiqarish indeksi 2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan %***




Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Karmana (2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 133,3 %), Qiziltepa (114,5 %), Tomdi (112,8 %), Nurota (111,3 %), Konimex (102,4 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (104,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1713,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 102,5 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 7,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, %




Shu bilan birga Karmana (2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 112,1 %), Tomdi (106,4 %), Nurota (105,9 %), Navbahor (104,7 %), Konimex (102,9 %) va Uchquduq tumanlarida (102,5 %) ga iste'mol tovarlarini ishlab chiqarilishi sezilarli darajada oshdi.

***Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining tarkibi, %***



2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 629,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %

2018 yil yanvar-iyul




2019 yil yanvar-iyul



Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Viloyatning boshqa korxonalari

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %***



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2902,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznes
ulushi**




2019 yil yanvar-aprel 10.7 %


2019 yil yanvar-may 11.7 %

2019 yil yanvar-iyun 12.3 %

2019 yil yanvar-iyul 12.4 %

Kichik biznes ishlab chiqqargan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd.so'm


2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha yirik korhonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



● Yirik korxonalar ● Kichik biznes


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbaxor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,6 %), Xatirchi (98,9 %), Qiziltepa (90,7 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (85,5 %), kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (1,9 %), Konimex (26,0 %), Karmana (47,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 2488 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 672 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 27,0%) Navoiy shahriga, 394 tasi (15,8%) Karmana tumaniga, 306 tasi (12,3 %) Nurota tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil 1 avgust holatiga)



2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 804 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 20,4 foizi Xatirchi tumaniga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik
(2019 yil yanvar-iyul)



**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**
telefoni: (436) 223-33-29